FUQAROLAR HUQUQLARINI BUZUVCHI MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI VA HARAKATLARI USTIDAN MA'MURIY SHIKOYAT QILISH XUSUSIYATLARI

Karimov Jaloliddin Abulato o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti
jaloliddink991@gmail.com | Tel: (+99894)7663132

Annotatsiya*: Mazkur maqolada fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma'muriy shikoyat qilishning huquqiy asoslari va amaliy xususiyatlari tahlil qilingan. Unda ma'muriy shikoyat institutining sudgacha nizolarni hal etishdagi o'rni, ma'muriy va sud tartibida himoya mexanizmlarining o'ziga xos jihatlari hamda Fransiya tajribasi asosida mahalliy hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazorat mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, ma'muriy tartibda shikoyat qilishning afzalliklari, ayrim toifadagi nizolar bo'yicha ushbu tartibni majburiy qo'llash zarurati yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *hokimiyat, demokratiya, prinsip, ma'muriy hujjat, prefekt.*

Kirish: Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimida fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazorat mexanizmlarini yaratish, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tezkor va samarali tiklash imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, amalga oshiriladigan harakatlar yoki yo'l qo'yiladigan harakatsizlik

imrconf.com

natijasida fuqarolarning huquqlari buzilgan taqdirda, ularni himoya qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati organlari davlat boshqaruvi tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanib, ular hududiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirish hamda davlat siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq ayrim holatlarda ushbu organlar tomonidan qabul qilinadigan ma‘muriy qarorlar yoki mansabdor shaxslarning harakatlari fuqarolar hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli bunday qarorlar va harakatlar ustidan shikoyat qilish imkoniyatining mavjudligi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati hisoblanadi.

Asosiy qism: Fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan shikoyat qilish huquqi konstitutsiyaviy huquq sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib, bu huquq orqali shaxslar o‘z buzilgan huquqlarini tiklash, noqonuniy qarorlarni bekor qildirish hamda davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu jarayonda ma‘muriy shikoyat instituti alohida o‘rin tutadi.


Ma‘muriy shikoyat instituti o‘z ichiga ikkita tartibni: ma‘muriy tartib va sud tartibini o‘z ichiga oladi. Ushbu ikkita tartib bilan manfaatdor shaxs buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi mumkin bo‘ladi. Ma‘muriy shikoyat qilish mexanizmi fuqarolarga sudga murojaat qilmasdan turib ham davlat organlarining noqonuniy qarorlarini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi va shu orqali fuqarolar huquqlarini himoya qilishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, ma‘muriy shikoyat quyidagi hollarda beriladi. Bular;

- ma’muriy hujjatlar ustidan;

imrconf.com

- protsessual hujjatlar ustidan, agar ularning ustidan shikoyat qilish ushbu Qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa;
- ma’muriy harakatlar ustidan, shu jumladan ma’muriy hujjatni qabul qilishni rad etish yoki uni tegishli muddatda qabul qilmaganlik ustidan shikoyat qilinishi mumkin[1].*(2-chizma)*



(2-chizma)

Manfaatdor shaxs ma’muriy shikoyatni qonunchilikka muvofiq ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan yuqori turuvchi ma’muriy organga yoki boshqa vakolatli ma’muriy organga ustidan shikoyat qilinayotgan ma’muriy hujjatni, protsessual hujjatni qabul qilgan yoxud ma’muriy harakatni amalga oshirgan ma’muriy organ orqali berishi mumkin. Ma’muriy shikoyatni olgan ma’muriy organ u kelib tushgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida ma’muriy shikoyatni yuqori turuvchi organga yoki ushbu ma’muriy shikoyatni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan boshqa ma’muriy organga ma’muriy ish bilan birga yuboradi. Manfaatdor shaxs ma’muriy hujjat ustidan berilgan ma’muriy shikoyatni ma’muriy tartibda ko‘rib chiqish natijalaridan norozi bo‘lgan yoki yuqori turuvchi ma’muriy organ mavjud bo‘lmagan taqdirda, ma’muriy hujjat ustidan sudga shikoyat qilishga haqli. Qonunchilikda ma’muriy hujjat ustidan ma’muriy shikoyat berilishi mumkin

[1] **Milliy qonunchilik bazasi.** O‘zbekiston Respublikasining 08.01.2018-yildagi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida” gi O‘RQ-457-sonli qonun 62-modda. // https://lex.uz/docs/-3492199

imrconf.com

bo‘lgan boshqa organ belgilanishi mumkin. Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ma’muriy shikoyat ma’muriy hujjat, protsessual hujjat to‘g‘risida tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan yoki manfaatdor shaxsga ma’muriy harakat haqida ma’lum bo‘lgan paytdan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay berilishi mumkin. Ma’muriy shikoyat berish muddati, agar u uzrli sababga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, shikoyatni ko‘rib chiquvchi ma’muriy organ tomonidan tiklanishi mumkin.

Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yuqori turuvchi ma’muriy organ yoki boshqa vakolatli organ ma’muriy shikoyat bo‘yicha o‘ttiz ish kuni ichida qaror qabul qilishi shart. Ma’muriy shikoyat bo‘yicha belgilangan muddatda qaror qabul qilinmagan taqdirda, manfaatdor shaxs ma’muriy hujjat, protsessual hujjat yoki ma’muriy harakat ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli. Ma’muriy shikoyat bergan shaxs shikoyat bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar uni chaqirib olishga haqli. Ma’muriy shikoyatni chaqirib olish yozma yoki elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

Yuqori turuvchi ma’muriy organ yoki boshqa vakolatli organ ma’muriy shikoyat bo‘yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

- shikoyat qilingan ma’muriy yoki protsessual hujjatni o‘zgarishsiz qoldirish;
- shikoyat qilingan ma’muriy yoki protsessual hujjatga o‘zgartirishlar kiritish;
- ma’muriy yoki protsessual hujjatni bekor qilish va zarurat bo‘lganda yangi hujjat qabul qilish.

Bilamizki, mahalliy davlat hokimiyati organlari ikkiga: vakillik va ijroiya. Mahalliy xalq deputatlari kengashi tomonidan qilingan qarorlarda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘ladigan bo‘lsa, o‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan bekor qilinadi[2]. Ushbu holatga baho beradigan

[2] **Milliy qonunchilik bazasi.** O‘zbekiston Respublikasining 02.09.1993-yildagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi O‘RQ-913-XII-sonli qonun // https://lex.uz/ru/docs/-112170

imrconf.com

bo‘lsak, ya‘ni mahalliy Kengashning qarorlarini Senat tomonidan bekor qilinishi qanchalik samarali. Senat o‘zi hududiy oliy vakillik organi hisoblanadi. Ushbu organ barcha mahalliy kengashlarning faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega. Odatda nazorat qiluvchi organ noqonuniy chiqarilgan qaror yoki xatti-harakati uchun qanadaydir ta‘sir chorasini qo‘llash imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. agarda Tahlillar shuni ko‘rsatadiki agarda mahalliy xalq deputatlari kengashi tomonidan fuqarolar huquqlarini buzadigan qandaydir qaror qabul qilingan bo‘lsa uni bekor qilish Senat amalga oshirilsa qandaydir mantiqsizlik bordek. O‘zi unda nazorat bor lekin bekor qilishi sal nomutanosib hisoblanadi. Mahalliy kengash qarorlari organning o‘zi yoki sud tartibida bekor qilishi kerak.

Xalqaro amaliyotga nazar tashlasak, Fransiyada mahalliy vakillik organlar amaldagi qonun hujjatlariga qanchalik tayanib qaror qabul qilinayotganligi yoki amal qilinmayotganligi ustidan prefekt nazorati (prefectoral control) amalga oshiriladi. Bu nazorat - davlat tomonidan mahalliy hokimiyat organlari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan huquqiy nazorat (legality control) hisoblanadi. Bu nazoratni Prefect amalga oshiradi. Prefekt markaziy hukumatning hududdagi vakili bo‘lib, u mahalliy organlarning qarorlari qonunlarga mosligini tekshiradi. Tekshirgandan keyin, uni o‘zi bekor qilmaydi, balki ma‘muriy sudga ushbu qarorni bekor yoki qisman bekor qilish uchun ariza kiritadi[3]. Ya‘ni o‘zi bekor qilmaydi. Shuningdek, parlamentda bunday vakolat ham berilmagan, ya‘ni mahalliy vakillik qarorlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri bekor qilmaydi. Demak, Fransiya mahalliy kengash qarorini ma‘muriy sudlar tomonidan bekor qilinadi.

Hokimlarning qonunchilikka, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid bo‘lgan hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to‘xtatiladi yoki bekor qilinadi, bundan xususiy mulk huquqining, shuningdek yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning yuzaga kelishi

[3] https://blog.rendezvousprefecture.com/en/post/article/what-is-a-prefectural-referral-simple-explanations

imrconf.com

imrconf.com

uchun asos bo‘lgan hujjatlar mustasno[4]. Ushbu normadan kelib chiqib savol paydo bo‘ladi. Agarda hokim tomonidan xususiy mulk huquqining, shuningdek yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning yuzaga keltiruvchi ma‘muriy hujjat qabul qilingan bo‘lsa va ushbu qarorda manfaatdor shaxsning huquq yoki erkinliklari buzilayotgan bo‘lsa u qanday tartibda bekor qilinadi. Hokim tomonidan ushbu ko‘rinishdagi qarorlar ma‘muriy hujjat hisoblanishini hisobga olsak, uning ustidan manfaatdor shaxs ma’muriy shikoyatni qonunchilikka muvofiq ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan yuqori turuvchi ma’muriy organga yoki boshqa vakolatli ma’muriy organga ustidan shikoyat qilinayotgan ma’muriy hujjatni qabul qilgan ma’muriy organ orqali berishi mumkin. Ya‘ni tuman hokimi chiqargan qarordan norozi bo‘lgan manfaatdor shaxs yuqori turuvchi organga ya‘ni viloyat hokimiga shikoyat qilishi mumkin bo‘ladi. Agarda viloyat hokimi chiqargan qarordan norozi bo‘lsa Vazirlar Mahkamasi yoki Prezidentga ham ustidan shikoyat qilish mumkin bo‘ladi. Demak, amaldagi qonunchilik bo‘yicha hokim tomonidan chiqarilgan har qamday ma‘muriy hujjat ustidan yuqori turuvchi organga shikoyat qilish mumkinligini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Ushbu holat yuzasidan xalqaro tajribalarga nazar tashlasak.

Fransiya ma‘muriy organlar tomonidan chiqargan qarorlari uchun uni bekor qilish yoki o‘zgartirish ancha mushkul hisoblanadi. Sababi ma‘muriy hujjat orqali manfaatdor shaxsga qandaydir huquq beriladi va u unga ishonib qandaydir faoliyat boshlaydi yoki nimadirga nisbatan huquqi vujudga keladi. Shuningdek, ma‘muriy organ tomonidan chiqargan qarorda o‘zi bekor qilishi yoki qaytartib olishi uchun aniq muddat belgilangan. Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar kodeksining L.242-1-moddasi[5] quyidagilarni belgilaydi: “Ma‘muriy organ o‘z tashabbusi bilan yoki uchinchi shaxsning talabiga binoan huquq yaratadigan qarorni faqat u noqonuniy

[4] O‘sha manba // https://lex.uz/ru/docs/-112170
[5] Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar kodeksi (2015-yil 23-oktabrdagi farmoyish asosida joriy etilgan) / http://www.conseil-etat.fr/fr/arianeweb/CE/analyse/2018-07-26/419204

bo‘lgan taqdirda hamda ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab to‘rt oy ichida bekor qilishi yoki qaytarib olishi mumkin”ligi aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu davlat tajribasidan shuni tushunish mumkinki, ma‘muriy organ tomonidan chiarilagn ma‘muriy hujjat fuqaroning huquq, erkinliklari yoki qonuniy manfaatlariga zarar keltiradigan bo‘lsa, o‘zi uni o‘zgartirishi, bekor qilishi uchun 4 oy muddatda ichida qilishga vakolatli hosoblanadi. Agarda ushbu muddat o‘tib ketsa, hujjatni bekor qilish yoki o‘zgartirish hujjatni qabul qilgan ma‘muriy organ qilolmaydi.

Xulosa: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ma‘muriy tartibda shikoyat qilishning manfaatdor shaxslarga quyidagi ijobiy tomonlari ko‘rish mumkin bo‘ladi.

- dastlab davlat boji bilan bog‘liq masala, ya‘ni ma‘muriy tartibda shikoyat qilganda davlat boji undirilmaydi;
- sudda qaraganda ancha tez ko‘rib chiqiladi;
- mahalliy hokimiyat yoki yuqori turuvchi organ qarorini ko‘rib chiqib, xatolikni tuzatganda, fuqarolar davlat organlari faoliyatiga ishonch hosil qiladi;
- ma‘muriy shikoyatlar orqali fuqarolar va davlat organlari o‘rtasida kelishuv mexanizmi ishlaydi, bu ijtimoiy norozilikni kamaytiradi;

Mazkur mexanizm sudgacha bo‘lgan bosqichda nizolarni hal qilish imkoniyatini yaratadi. Ya‘ni, manfaatdor shaxslar avvalo yuqori turuvchi ma‘muriy organga murojaat qilib, masalani tezroq va kamroq xarajat bilan hal qilishlari mumkin. Bu esa sudlarga tushadigan yukni kamaytiradi va ma‘muriy organlarning o‘z faoliyatini mustaqil ravishda tuzatish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, agar ma‘muriy tartibda muammo hal etilmasa, shaxslar sudga murojaat qilish huquqini saqlab qoladi. Demak ma‘muriy tartibda shikoyat qilish nafaqat manfaatdor shaxsga balki ma‘muriy organga ham bir qancha ijobiy jihatlarini ko‘rish mumkin. Umuman olganda bizningcha quyidagi

imrconf.com

ma‘muriy-huquqiy nizolar ma‘muriy tartibda shikoyat qilish tartibini majburiy qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bular:

- agarda ma‘muriy organ chiqargan ma‘muriy hujjatda imloviy, arifmetik va boshqa shunga o‘xshash xatolik mavjud bo‘lsa, ushbu muammoni bartaraf etishda ma‘muriy tartibda shikoyat qilish maqsadga muvofiq. Ushbu muammoni bartaraf etish ma‘muriy organning o‘zida berilgan vakolatlardan biridir. Ushbu masalani ham sud tartibida shikoyat qilish ma‘muriy organga nisbatan legitimlikni yanada pasayishiga olib keladi.

- muddat bilan bog‘liq masalar. Bilamizki, ariza kelib tushgandan keyin ma‘muriy organ uni bir oy ichida ko‘rib chiqishi kerak bo‘ladi. Agarda muddat buzilishi bilan bog‘liq masala bo‘ladigan bo‘lsa ma‘muriy tartibda shikoyat qilish maqsadga muvofiq. Ushbu masalada aniq qonunchilikda javob berilgan yani hech qanday sabablarga ko‘ra uni ma‘muriy organ asoslantirib bera olmaydi va ushbu muammoni o‘zi hesh qanday boshqa organlarni bezovta qilmagan holda bartaraf oladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shu va shunga o‘xshash masalalarni ma‘muriy tartibda shikoyat qilish qilishni me‘zonlashtirib qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

imrconf.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Milliy qonunchilik bazasi.** O‘zbekiston Respublikasining 08.01.2018-yildagi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida” gi O‘RQ-457-sonli qonun 62-modda. // https://lex.uz/docs/-3492199

2. **Milliy qonunchilik bazasi.** O‘zbekiston Respublikasining 02.09.1993-yildagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi O‘RQ-913-XII-sonli qonun // https://lex.uz/ru/docs/-112170

3. https://blog.rendezvousprefecture.com/en/post/article/what-is-a-prefectural-referral-simple-explanations

4. Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar kodeksi (2015-yil 23-oktabrdagi farmoyish asosida joriy etilgan) / http://www.conseil-etat.fr/fr/arianeweb/CE/analyse/2018-07-26/419204